

INGLIZ TILIDAGI O'QUV QO'LLANMA VA DARSLIK LARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING AHAMIYATI

Nurullayeva Adibaxon Dilshod qizi

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti, 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Saitxanova Aziza Xolmuxamedovna**

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi o'quv qo'llanma va darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishning ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati va amaliy natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarjima materiallarining o'quvchilar bilimini o'zlashtirishiga ta'siri, pedagogik moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlarining ommabop bo'lishidagi roli yoritilgan. Shuningdek, 2025 yil bo'yicha tarjimalar sohasida amalga oshirilgan loyihalar - YUNESKOning "Translate a Story" tashabbusi, "1000 kitob" loyihasi, oliy ta'lim muassasalari hamkorligi va nashriyotlar faoliyati asosida statistik ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, ingliz tili, o'zbek tili, o'quv qo'llanma, darslik, ta'lim sifati, pedagogik moslashtirish, lingvistik adaptatsiya, ilmiy-texnik axborot, bolalar adabiyoti, oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, metodik qo'llanma, til to'sig'i, global ilm-fan, bilim resurslari, ta'lim innovatsiyalari

Аннотация: В данной статье проанализированы роль, значение и практические результаты перевода англоязычных учебных пособий и учебников на узбекский язык в образовательном процессе. В исследовании раскрыто влияние переводных материалов на усвоение знаний учащимися, возможности, возникающие в процессе педагогической адаптации, а также роль перевода в популяризации современных научных достижений. Кроме того, приведены статистические данные по реализованным в 2025 году проектам в сфере

перевода — инициативе ЮНЕСКО «Translate a Story», проекту «1000 книг», сотрудничеству высших учебных заведений и деятельности издательств.

Ключевые слова: перевод, английский язык, узбекский язык, учебное пособие, учебник, качество образования, педагогическая адаптация, лингвистическая адаптация, научно-техническая информация, детская литература, высшее образование, профессиональное образование, методическое пособие, языковой барьер, глобальная наука, информационные ресурсы, образовательные инновации.

Abstract: This article analyzes the role, significance, and practical outcomes of translating English-language textbooks and educational materials into Uzbek within the educational process. The study examines the impact of translated resources on students' comprehension, the opportunities that emerge during pedagogical adaptation, and the role of translation in making modern scientific achievements accessible to a wider audience. The article also provides statistical data on translation-related projects implemented in 2025, including UNESCO's "Translate a Story" initiative, the "1000 Books" project, university partnerships, and publishing house activities.

Keywords: translation, English language, Uzbek language, educational manual, textbook, quality of education, pedagogical adaptation, linguistic adaptation, scientific and technical information, children's literature, higher education, vocational education, methodological guide, language barrier, global science, knowledge resources, educational innovations.

Kirish

Global axborot maydonining kengayishi, ilm-fan va texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi ta'lim sohasida ham yangi ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda. Ingliz tili dunyo ilmiy-texnik hamjamiyatining asosiy tili sifatida e'tirof etilayotgani tufayli ko'plab zamonaviy o'quv qo'llanmalar va darsliklar aynan shu tilda yaratiladi. O'zbek tiliga tarjima qilingan o'quv adabiyotlari esa mazkur bilimlarni keng

auditoriyaga taqdim etish, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va ilmiy axborotning ommabop bo'lishiga xizmat qiladi.

1. Ingliz tilidan uzbek tiliga tarjimalarining ta'limdagi ahamiyati

1.1 Ta'limga kirish va tushunishni osonlashtirish

Ona tilidagi darsliklar, ayniqsa maktab va kasb-hunar bosqichlarida, o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Til to'siqlarining kamayishi o'quv motivatsiyasini oshiradi va murakkab ilmiy tushunchalarni soddalashtirilgan shaklda yetkazish imkonini beradi. UNESCO tadqiqotlariga ko'ra, o'quv materiallarining ona tilida taqdim etilishi o'quvchining bilimni o'zlashtirish tezligini oshirishi isbotlangan. [1 UNESCO – “UNESCO and partners publish 130 open source children's books in Uzbek.]

1.2 Pedagogik moslashuv va mahalliy kontekst

Chet tillardagi darsliklar ko'p hollarda boshqa geografiya, madaniyat yoki ta'lim metodlariga moslab yaratilgan bo'ladi. Tarjima jarayonida esa, matnni shunchaki o'zbek tiliga tarjima qilish emas, balki, madaniy moslashtirish, misollar va pedagogik adaptatsiya qilish muhim o'rin tutadi. To'g'ri qilingan tarjima o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni yaxshi tushunish va tez o'rganishga xizmat qiladi.

1.3 Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni tez o'zlashtirish

Texnologiya, IT, dasturlash, kiberxavfsizlik, tibbiyot va muhandislik sohalarida eng dolzarb manbalar, darslik, o'quv qo'llanmalar va maqolalar asosan ingliz tilida chop etiladi. Shuningdek, yanagi kasb va sohalar, ko'nikmalar ham aynan shu tilda dunyoga yoyilib, hatto shu sohalarga tegishli so'zlar neologizm shaklida kirib, qo'llanilmoqda. Masalan, firlanser (ing. Freelancer), yumshoq ko'nikmalar (ing. Soft skills) va boshqalar. Shu kabi ma'lumotlarni o'zbek tiliga tarjima qilish esa, bu bilimlarning ommaviylashuviga, yangi kasblarni egallash imkoniyatining kengayishiga xizmat qiladi.

1.4 Bolalar adabiyoti va boshlang'ich o'qish madaniyatini shakllantirish

YUNESKO tomonidan amalga oshirilgan “Translate a Story” tashabbusi doirasida yuzlab bolalar kitoblarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi yosh avlodning

erta o‘qish ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. 130 ta ochiq manbadagi bolalar hikoyalarining o‘zbekchaga tarjima qilingani ham mazkur yo‘nalishning muhimligini ko‘rsatadi. [2 UNESCO – Translate a Story / Global Digital Library.]

2. Tarjima ishlariga yaqqol namoyon bo‘layotgan sohalar

2.1 Maktab ta’limi

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida ingliz tili darsliklari va boshqa fanlar bo‘yicha xorijiy metodikalarni moslashtirish amaliyoti davom etmoqda. [3 O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim vazirligi – Darsliklar bo‘limi.]

Ba’zi sinflar uchun yangi formatdagi ingliz tili darsliklari xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Shu bilan bir qatorda, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020- yil mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tganidan so‘ng, umum ta’lim tizimiga Finlyandiya ta’lim dasturlari va metodikalarini joriy etish yo‘lga qo‘yildi. [8 Kun.uz-Maktablarda o‘qitish metodikasi o‘zgartiriladi.]

Masalan, **4K yondashuvi**. Yangi darsliklar “4K” tamoyiliga asoslanib ishlab chiqilmoqda: ya’ni **Tanqidiy fikrlash (Critical thinking), Jamoaviy ishlash (Collaboration), Ijodkorlik (Creativity), Muloqot qilish (Communication)** ko‘nikmalariga katta urg‘u berilmoqda. Bu Finlyandiya ta’limida keng tarqalgan yondashuvlardan biri bo‘lib, bolalar nafaqat bilim va faktlarni yodlaydi, balki muammolarni hal qilish, guruhda ishlash, ijodiy fikrlashda mashq qilishadi. Yuqorida keltirilgan ko‘nikmalarga ingliz tilida ma’lumotlar va manbalar ko‘pligi sababli, ularning tarjima qilinishi juda ahamiyatli.

2.2 Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot

2025-yilda O‘zDJTU va “O‘zbekiston” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi o‘rtasida darslik va qo‘llanmalar tarjimasi bo‘yicha memorandum imzolanishi oliy ta’limdagi tarjima jarayoni izchil davom etayotganini ko‘rsatadi.[5 UzSWLU – Matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlik bo‘yicha memorandum (2025).]

Shu qatorda, O‘zbekiston va Britaniyaning yangi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Shunga qaramay, oliy ta’limning boshqa sohalarida ham tarjima materiallariga ehtiyoj oshib bormoqda.

2.3 Ta’lim va texnik yo‘nalishlar

Texnik yo‘nalishlar, sanitar standartlar, tibbiy protokollar, kompyuter texnologiyalari bo‘yicha qo‘llanmalar tarjimasiga talab yuqori. Bu sohalar o‘z tabiatiga ko‘ra **xalqaro tajriba va standartlarga tayanadi**. Masalan, aksariyat texnik va tibbiyot xodimlari yangilangan protokol va qurilmalar bilan ishlashga majbur. Yoki IT va kibxer xavfsizlikni olsak, barcha zamonaviy hujjatlar, darslar, qo‘llanmalar ingliz tilida, shu sababli ingliz tilidagi manbalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishga ehtiyoj katta.

2.4 Bolalar kitoblari va boshlang‘ich ta’lim

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagi bolalar ko‘p o‘qigan sari:

- so‘z boyligi tez kengayadi,
- matnni tushunish darajasi oshadi,
- grammatik tuzilmalardan ongli foydalanishni o‘rganadi.

Tarjima qilingan kitoblar miqdori ko‘paygani sari bolalarga **mos yoshga, mavzuga va qiziqishga mos variantlar** yaratiladi. Bu esa o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Xorijiy bolalar adabiyotidagi turli qahramonlar, fantastik syujetlar, ilmiy-fantastika, sarguzasht yoki ijtimoiy mavzular bolalarning **tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi**. Bu ko‘nikmalar savodxonlikning asosiy komponentlaridan biri bo‘lgan **tanqidiy fikrlashni** rivojlantiradi. Aynan shuning uchun ham bolalarga mo‘ljallangan kitoblar tarjimasiga muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, 130 ta bolalar kitobining o‘zbek tiliga tarjima qilingani boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaganini misol qilib keltish mumkin.

3. 2025 yil bo‘yicha tarjima jarayonlari va amaliy natijalar

3.1 “1000 kitob” loyihasi — 2025 yil natijalari

2025-yilning aprel oyida O‘zbekistonda “1000 kitob” loyihasi doirasida tarjima qilingan dastlabki kitoblarni chop etish uchun tender e‘lon qilindi. [4 Gazeta.uz – “1000 kitob loyihasi doirasida tarjima qilingan dastlabki kitoblarni chop etish uchun

tender e'lon qilindi" (10.04.2025).] Bu loyiha yoshlar uchun sifatli badiiy va ilmiy adabiyotlarni tarjima qilib, ommaga taqdim etishni maqsad qiladi.

3.2 YUNESKO dasturlari ta'siri

YUNESKOning "Translate a Story" kampaniyasi orqali o'zbek tilida 130 ta bolalar kitobi yaratildi va Global Digital Library platformasiga joylashtirildi. Bu ochiq manbalar maktabgacha ta'lim muassasalari va kutubxonalar uchun bepul taqdim etilgan.

3.3 Ilmiy maqolalar va tarjima bo'yicha tadqiqotlar (2025)

2025-yilda ingliz–o'zbek tarjimasini, lingvokulturologik moslashtirish va pedagogik tarjima metodlari bo'yicha bir qator maqolalar chop etilgan (inlibrary.uz va boshqa ilmiy bazalarda). [6 Tahliliy va ilmiy maqolalar – inlibrary.uz, mysience.uz, tarjima metodikasi bo'yicha tadqiqotlar.]

3.4 Tijoriy nashriyotlar faoliyati

Asaxiy Books va boshqa yirik nashriyotlar tomonidan ingliz tilidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar, bestsellerlar va rivojlantiruvchi qo'llanmalar o'zbekchaga tarjima qilinmoqda, bu esa kitob bozorida tarjima mahsulotlariga talab yuqoriligini ko'rsatadi. [7 Asaxiy Books – 2025 yilgi tarjima kitoblar ro'yxati.]

Xulosa

Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'quv qo'llanma va darsliklar tarjimasini O'zbekiston ta'lim tizimi rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Bu jarayon:

- ta'limni demokratlashtiradi,
- ilmiy axborotning ona tilida yetkazilishiga xizmat qiladi,
- o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi,
- yangi texnologiyalar va kasblarni o'zlashtirishni osonlashtiradi,
- bolalar savodxonligi va o'qish madaniyatini mustahkamlaydi.

2025-yildagi ochiq manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonlari tizimli ravishda kuchaymoqda va davlat, xalqaro tashkilotlar hamda nashriyotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Kelajakda darsliklar va qo'llanmalarning yagona elektron katalogini yaratish ushbu jarayonni yanada optimallashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. UNESCO – “UNESCO and partners publish 130 open source children’s books in Uzbek.”
2. UNESCO – Translate a Story / Global Digital Library.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim vazirligi – Darsliklar bo‘limi.
4. Gazeta.uz – “1000 kitob loyihasi doirasida tarjima qilingan dastlabki kitoblarni chop etish uchun tender e’lon qilindi” (10.04.2025).
5. UzSWLU – Matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlik bo‘yicha memorandum (2025).
6. Tahliliy va ilmiy maqolalar – inlibrary.uz, mysience.uz, tarjima metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar.
7. Asaxiy Books – 2025 yilgi tarjima kitoblar ro‘yxati.
8. Kun.uz- Maktablarda o‘qitish metodikasi o‘zgartiriladi.(30.10.2020).